


2021- yil uchun Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 15 583,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 10,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 2,1 % ga yetdi.




2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2020- yil	2021- yil	
I. YAHM, jami	12 928,3	15 583,1	110,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 547,6	15 152,5	110,2
mahsulotlarga sof soliqlar	380,7	430,6	110,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 547,6	15 152,5	110,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 969,7	6 002,3	104,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 047,5	4 907,7	118,1
sanoat	2 984,4	3 634,5	118,5
qurilish	1 063,1	1 273,2	117,0
xizmatlar	3 530,4	4 242,5	109,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	591,7	717,3	108,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	435,6	536,4	114,6
boshqa xizmat tarmoqlari	2 503,1	2 988,8	108,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 17 915,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 8,1 % ga yuqoridir.

2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 39,6 % ni, sanoat tarmog'i 24,0 % ni, qurilish 8,4 % ni va xizmatlar sohasi 28,0 % ni tashkil qildi.

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,1	97,2
mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	2,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39,6	39,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	32,3	32,4
sanoat	23,8	24,0
qurilish	8,5	8,4
xizmatlar	28,1	28,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,7	4,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,5
boshqa xizmat tarmoqlari	19,9	19,8

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 39,6 %), sanoatda – 118,5 % (24,0 %), qurilishda – 117,0 % (8,4 %), xizmatlar sohasida – 109,2 % ni (28,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,9 % (4,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,6 % (3,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 108,3 % dan (19,8 %) iborat bo'ldi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2020- yilda – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,3 f.p. (2020- yilda – 0,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,4 f.p. (2020- yilda – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,5 f.p. (2020- yilda salbiy 0,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2020- yilda – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021-yilda YAHM deflyatori indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 115,7 % va xizmat ko'rsatish sohasida 110,1 % qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 69,2 %ni tashkil qildi (2020- yilda – 70,5 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

